

2025-yil 19-noyabr

Poytaxtimizda “Azot Sintezgaz. O‘zbekiston va MDH” IV xalqaro kongressi va ko‘rgazmasi o‘z ishini boshladi



Anjumanda 200 nafardan ortiq mutaxassis ishtirok etmoqda, 10 dan ziyod yirik investitsiya loyihalari taqdim qilinmoqda.

Mazkur nufuzli tadbir O‘zbekiston va MDH mamlakatlaridagi yirik sintez-gazini qayta ishlash korxonalari, davlat idoralari, ishlab chiqarish texnologiyalari litsenziarlari, uskuna ishlab chiqaruvchilar, injiniring va loyiha-qurilish kompaniyalarini bir maydonda jamladi.



Kongressning ochilish qismida “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov ishtirokchilarga tabrik so‘zini yo‘llab, zamonaviy sharoitda texnologiyalarni mahalliyashtirish hamda ichki bozorni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qarattidi.



“Chirchiq” va “Jizzax” kimyo-industrial texnoparklari direksiyasi direktori Jasur Muhamedov hamda Rezidentlar bilan ishlash departamenti rahbari texnoparklar faoliyati haqida batafsil taqdimot o‘tkazib, xorijiy ishlab chiqaruvchilarni jalb etish masalalari yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdilar.



Kongress davomida ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va modernizatsiya qilishga qaratilgan yirik investitsiya loyihalari, shuningdek azot, metanol, ammiak va mineral o‘g‘itlar (azot, kaliy, fosfor, kompleks) ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari muhokama qilindi.



Ishtirokchilar tadbirning birinchi kunida O'zbekiston va MDH mamlakatlarida sintez gazini qayta ishlash sanoati uchun zamonaviy yechimlar bo'yicha o'zaro fikr almashdilar.



Bundan tashqari, metanol va ammiak ishlab chiqarishdagi texnologik muammolar, ularning afzalliklari hamda sanoat korxonalarini qurish bo'yicha rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan loyihalar yuzasidan tajriba almashildi.



Kongress ertaga ham o'z ishini davom ettiradi.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/poytaxtimizda-azot-sintezgaz-o-zbekiston-va-mdh-iv-xalq-aro-k>